

INGLIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Mansurov Yusufjon Asliddinovich*Uchquduq tumani kasb-hunar maktabi**Ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda axborot vositalarining o'rni, ingliz tilining o'qitilishi, ingliz tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholas, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, axborot vositalar, kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion usullar.

Kirish:

Darhaqiqat, bugungi kunda ingliz tili jadal rivojlanib bormoqda. Shuningdek bu jadallahuv yurtimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Albatta bu yurtimiz uchun ham, insonlar uchun ham yuqori rivojlanishlarni bir belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'qitishda o'ziga xos bir tajribada, sinalgan shaklda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda ingliz tilining o'qitilishi, ingliz tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalariga mos tarzda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalarini stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ingliz tilini o'zlashtirishning aniq maqsadlari sifatida chegara darajalarini ishlab chiqish g'oyasi takomillashdi. Dastlab, asosan, katta yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lsa, maktab va boshqa o'quv muassasalarida ta'lim maqsadlari va mazmuniga katta muvaffaqiyat bilan moslashtirildi.

Ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Ingliz tili fani to'rt aspectga bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va malakalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, ingliz tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish ingliz tili o'rganishning har bir aspectida qo'l keladi. Masalan, tinglab

tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas.

Natijalar:

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi asosiy omil sanaladi. Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars mobaynida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi.

Muhokama:

Shu bilan birga, sinfda yoki ingliz tili kabinetida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, muloqot muhitini, kommunikativ muhitni yaratish, guruh xonasini tashkil etishga qo'yiladigan talablarga alohida o'rinn beriladi. Individual ish tinglovchilar, guruhlar va juftliklarni rivojlantirish texnikasi, mashg'ulotlar vaqtida o'quv faoliyatini boshqarish usullari mavjud.

Bizning o'qitish amaliyotimiz bilan solishtirganda, o'quvchilar tomonidan o'zlarining dastlabki bilimlarini, qiziqishlarini, tajribalarini aqliy hujum, kutish va ijodiy faoliyat shaklida faollashtirish uchun o'qituvchining harakatlari tufayli o'z matnlarini idrok etishlari alohida qiziqish uyg'otadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, talabalarining dastlabki matnli faoliyati o'qituvchi tomonidan matn bosqichida haqiqatda taqdim qilingan ingliz tili nutqi namunasining mohiyati va xususiyatlariga rahbarlik qiladi. Bu yerda mas'uliyat bilan talabalar tomonidan yaratilgan va o'quv matnlarini taqqoslash amalga oshiriladi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları takomillashadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlilik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yeqtlariga aylantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
2. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. «INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI» Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2003.
3. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
4. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012.